



O'Z TILIMIZDAN FOYDALANYAPMIZMI?

Sherqo'ziyev Nasimxon Nodirbek o'g'li

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi 1-bosqich "Sud-huquqiy faoliyati" yo'nalishi 24-22
guruhi o'quvchisi

nasimbeksherqoziyev103@gmail.com

Tel: +998 90 308 29 38

*Til - millat bor ekanligining, uning bashariyat zamonida yashayotganligining
isbot va dalili. Modomiki til yashamas, tamaddun etmas ekan, e'tibor susayib,
millat ham yo'q bo'lib boradi, tarix maydonidan o'chib ketadi.*

Afsus,nadomat-la aytay ohimni:

Tildan mehrimizni sug 'urib qo 'ydik!

Bir so 'zni o 'rnida topib aytolmay,

Ajnabiy so 'zlarni besamar yo 'ydik

Insonning ona tili uning ma'daniyati, tarixi, o'tmishi haqida xabar beruvchi ilk belgi hisoblanadi. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda mavjudlikni ta'minlaydi. Har bir millatning o'z vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddasdir.

Inson kundalik hayoti davomida axborot olish, uni yetkazishda tilda mavjud bo'lgan so'zlardan foydalanadi. Tilning yashayotganligi ham ana shunga bog'liq hodisa. Ya'ni inson o'sha tildagi so'zni nutq jarayonida ishlatadi, uni borliqqa chiqaradi. To'g'ri, tilning ijtimoiyligini, uning inson ongiga bog'liqligini inobatga olgan holda fikrlash lozim. Kanadalik adabiyotshunos va tilshunos Marshall McLuhan aytganidek, dunyoda eng katta targ'ibot bizning ona tilimizdir, biz bolaligimizda o'r ganadigan va ongsiz ravishda o'r ganadigan narsadir. O'zgaruvchanlik xususiyati va boshqa tildan yangi tushuncha olish har bir tilda mavjud. Lekin har narsada me'yor bo'lgani kabi bu jarayonda ham chegara bo'lishi kerak. Faqat so'zning muqobil varianti bo'limgandagina yangi atama olishni ma'quil deb topishimiz kerak. Ajnabiy tildan so'z olish ko'pincha so'zlashuv tilida ro'y berayotgani ma'lum. Chunki adabiy til me'yorlaridan to'laqonli foydalanish oddiy so'zlashuv nutqida uchramaydi. Hozirgi kunda sof o'zbek tilida mavjud bo'lgan so'zlar o'rnida Ovro'pa va shu kabi chet so'zlarini qo'llash holatlari uchramoqda. Natijada muomalamizdag'i so'zlarning o'rin bo'shatishi, kam qo'llanishi yoki deyarli foydalanmay qolayotganligi uchraydi.



1914-yil "Oyna" jurnalining 31-sonidagi "Har millat o'zi tili ila faxr etar" nomli maqolada shunday deyilgan: "*Agar til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiylug'at va so'zlarni qo'sha bersak, biz oz zamonada til va millatimizni yo'qoturmiz. Millatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila, albatta, yo'qolur. Bas, bizga tilimizni ajnabiylar so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadir*". O'sha davrdan beri ma'lum bir sabablarga ko'ra bir qancha so'zlar muomalamizga kirib keldi, iste'molga kiritildi, umumturkiy so'zlarimiz ishlatilmaydigan o'rirlarni egalladi. Biz hozirgi kunimizdan ertamiz uchun qayg'urmasak, bu jarayonning ishtirokchisiga aylanib qolamiz, ya'ni qorishiq tilga o'rganamiz, o'zligimizdan o'zsizlikka o'tib boramiz.

Buyuk mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiyning o'sha davr (fors-tojik tiliga bo'lgan nazarning kuchliligi, turkiy til o'zi bir katta daraxt bo'la turib, o'zga daraxtning soyasida qolib ketayotganligi, ba'zi turkiy shoirlarning fors-tojik tilida ijod qilayotganligi) turkiy tilning obro'sini ko'tarish, boshqa tillardan (fors-tojik) turkiy tilning imkoniyatlari va xususiyatlari keng ekanligini isbotlab berdi. Alloma adib, o'z tili bilan aytganda «nazm gulistonining andalibi nag'masaroyi» sifatida eski o'zbek tilini, uning badiiy uslubini ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko'rsata oldi. Alisher Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida e'tibor qaratadi. O'zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib beradi. U arab, fors, hindiy tillari qatorida o'zbek tilining ham eng qadimiy tillardan biri ekanligini alohida ta'kidlaydi. Fikrlarini qiyoslash usulidan foydalangan holda bayon etadi. Buning uchun u fors-tojik tilini jalb etadi. Biroq biror o'rinda ham u xolislikdan chekinmaydi. Adib turkiy tildagi yuzta fe'lni keltirib, ularning ma'nosini anglatadigan so'zlarning fors tilida mavjud emasligini ko'rsatadi. Yoki so'z ma'nolari orasidagi tafovutlarga alohida urg'u beradi.

Alisher Navoiy ona tilidagi so'zlarning barcha imkoniyatlaridan imkoni boricha to'liqroq foydalanishga harakat qildi. Zamondoshlari tilidagi faol va nofaol so'zlarni o'z asarlariga kiritib, ularning bizning zamonamizgacha yetib kelishini ta'minladi. O'zi ko'plab yangi so'zlarni yaratdi, oldindan qo'llanib kelayotgan so'zlarning yangicha ma'no tovlanishlarini kashf qildi, tilning ifoda imkoniyatlarini amaliy jihatdan ham juda kengaytirdi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich BMT bosh assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zlaganligi xalqimiz uchun quvonarli voqeа bo'lgan. Tarixda yana bir bor o'zbek tiliga e'tibor qaratilishiga, uning jahon minbarida baralla eshittirilishiga sabab bo'ldi. Assambleyada ishtirok etgan qator davlat rahbarlari esa maxsus tarjimon qulqchinlardan foydalangan holda o'zbek



tilidagi so'zlarni o'z ona tillarida tingladilar. Ular ham tilimizning purma'no so'zlaridan bahramand bo'lishdi. Ushbu tarixiy voqealar ona tilimiz uchun e'tibor, uning ravnaqiga qaratilgan harakatlar bo'lsa, uning oddiy hayotimizda e'tiborsiz qolishi, hurmatsizlikka uchrashi unga o'z qo'limiz bilan berilgan zarbadir. Aynan shunday "zarba"larni quyidagi o'rnlarda ko'rib o'tamiz. Toponimik birliklarni chet so'zları bilan nomlash juda achinarli holat. Ayniqsa, bugungi kunda qad rostlagan inshoot nomlarining aksariyari chet so'zları bilan to'lgan. Shahar ko'chalari bo'ylab ketar ekansiz, ruscha, inglizcha, hatto aralash tilli birikmalarni ko'rib afsuslanasiz. "Milliy tilga e'tibor shumi, hurmat shunday bo'ladimi, ajabo!" - deysiz. O'z tilimizda mavjud muqobil variant bo'ladigan so'zlar bo'la turib ajnabiy nomlar berish milliylikdan, o'zlikdan kechish demakdir. Bunday holatlar "o'zbekman" degan har bir insonning tabini xira qilishi mubolag'a emas. Bugungi kunda niqob tutmagan, biror jamoat qoidalarni buzganlarga jarimalar belgilangan, lekin o'z tiliga hurmatsizlik qilgan shaxslarga biror jiddiy chora ko'rilmagan. Xohlardimki, til qoidalarni buzilishiga qarshi turadigan mas'ullar shakllantirilsa, shunday vakolatli tashkilot tuzilsa...

Ham o'zbekcha, ham chet tilidagi o'zlashmagan so'zlarni yonma-yon kelgan holatlari ora-orada qatorlicha uchrab turibdi. "Tantana hotel", "Hotel ziyorat" - bu nimasi, o'zbek tilida "mehmonxona" so'zi yo'qmi?! Yoki bo'lmasa, joylarimizni "unday city", "bunday city"lar bilan to'ldirib tashlaganmiz. "Shahar" obro'siz so'zga aylanib qoldimi?! Ular o'rniga mentalitetimizga xos bo'lмаган, nomilliy so'zlar ishlatib jumlalar yaratsak, taajjub! Bunday misollarni qatorlicha keltirish mumkin. Diqqat bilan qaralsa, atrofimiz shunday holatlarni ko'rsatyapti. Ular o'rniga mentalitetga xos bo'lмаган, nomilliy so'zlar ishlatib, birikmali jumlalar yaratsak, taajjub! Yo'l yoqalab ketayotsam, shunday holatga ko'zim tushdi: mashina ehtiyyot qismlari sotiladigan va ta'mirlanadigan bino tepasida "Avto zapchas" deb yozib qo'yilgan edi. "Avto" so'zining qo'llanishiga e'tirozim yo'q ("avto" - yunoncha "autos" - o'zim ma'nosini bildiradi, qo'shma so'z bo'lagining bir qismi sifatida qo'llaniladi). "Zapchast" so'zi aslida rus tilidan o'zbek tiliga tarjimasi "qism" hisoblanadi. Uning o'rniga "ehtiyyot qism" birikmasi ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar.

Jamiki ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebahो jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuviga tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev aytganidek:



“O’zbek tili bayram qilinadigan ish emas, uning maqomini joyiga qo’yish kerak!”
Uni ko’klarga ko’tarib, obro-mavqeyini qaytarish kerak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. 2006-2008
2. To’xtaliyev B., Karimov B., Usmonova K. // 10-sinf adabiyot darslik. T-2017, 1-nashr.
3. “Imlo” elektron dasturi
4. <https://www.xabar.uz/jamiyat/sessiyadagi-nutq>
5. <https://youtu.be/02y3Rm1V4Lg>